# XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING
# Q A R O R I

2023 - yil 7 - aprel VI-87-48-11-169-K/23 Farg‘ona shahar hokimligi

## Fag‘ona shahridagi ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlarini bo‘lish va ularning chegaralarini belgilash hamda nomlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarni nomlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014- yil 4-martdagi 48-sonli qaroridan kelib chiqib “Shakarqishloq” va “Mash’al” mahalla fuqarolar yig‘inlari Kengashining qarorlari bilan tanishib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining “Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasining 2023-yil 27-yanvar kungi 3/04-3-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarni nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli Qaroriga asosan, “Shakarqishloq” hamda “Mash’al” mahalla fuqarolar yig‘inlari negizida Davlat kadastr palatasi Farg‘ona shahar filiali tomonidan Farg‘ona shahar hokimligiga taqdim etilgan mahallalar hududiy chegaralarini aks ettirgan chizmasi asosida yangi mahalla fuqarolar yig‘inlari tashkil etilsin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasiga:

- shaharning “Shakarqishloq” mahalla fuqarolar yig‘ini negizida yangi

tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘iniga “Tarona”, “Bunyodkor” va “Yangi xayot” nomlari;

- shaharning “Mash’al” mahalla fuqarolar yig‘ini negizida yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘iniga “Farovon”, “Yuksalish” va “Sayilgoh” nomlari berilishi tavsiya etilsin.

4. Davlat kadastr palatasi Farg‘ona shahar bo‘limi (O.Karimov)ga:

Farg‘ona shaharda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi turar va noturar obyektlarni kadastr xujjatlariga tegishli o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Farg‘ona shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi (J.Baxtiyorov);

- shaharning “Shakarqishloq”, “Mash’al” mahalla fuqarolar yig‘inlari negizida yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga hamda “Sh.Rashidov” va “Iftixor” mahalla fuqarolar yig‘inlariga davlat xususiy sherikchilik asosida mahalla fuqarolar yig‘ini binosini qurish choralarini ko‘rsin.

6. Mahalla fuqarolar yig‘ini raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasiga;

- shaharda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarida fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va samarali bajarish vazifasi yuklatilsin.

7. Shahar hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Umarov)ga:

- yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining shtatlari jadvalini tegishli tartibda shakllantirish vazifasi yuklatilsin.

8. Shahar Statistika bo‘limi (R.Xasanov)ga;

- yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining statistik ko‘rsatkichlariga belgilangan tartibda zaruriy o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

9. Farg‘ona shahar Davlat xizmatlari markazi (D.Ortiqov);

- yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish choralarini ko‘rsin.

10. Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyatiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Farg'ona shahar hokimi** **V.Nazarov**